우즈베키스탄어

Chet ellik ishchilar huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimi haqida ma'lumotnoma

Kamsitish va inson huquqlarini poymol qilish kabi adolatsiz munosabatlar taqiqlanadi

①(Mehnat sharoitlari) Mahalliy ishchilarga nisbatan ish haqi tafovuti, ish haqi va mehnat sharoitlarining farqi hamda ish haqi to'lanmasligi

- ◯ "Kompaniyada muammo bor", "Sen chet ellik bo'lganing sababli" deb **ish haqi, turli qo'shimcha to'lovlar** va **ishdan ketganda to'lanadigan pul**ni bermaslik, **eng kam ish haqi** to'g'risidagi qonunni buzish
- ◯ "Ish ko'p", "Axir pul ishlash uchun kelmadingmi?" deb **dam olish va ish vaqti qoidalarini** buzish, **pullik yillik ta'til** bermaslik va boshqalar

②(Qo'pol so'zlar va zo'ravonlik) Ish buyruqlari yoki o'qitish bahonasida haqorat qilish, zo'ravonlik va tazyiq o'tkazish

- ◯ Ish topshirig'iga bo'ysunmaganingiz uchun ish joyida so'kish yoki jismoniy kuch ishlatish, **zo'ravonlik**, **tazyiq o'tkazish**
- ◯ Ish buyruqlari (yoki o'qitish) bahonasida yoki yotoqxonada haddan tashqari jismoniy yaqinlik, **jinsiy tazyiq va jinsiy zo'ravonlik**

③(Ishdagi baxtsiz hodisalar) Ish joyidagi baxtsiz hodisalarni yashirish va sug'urta/tovon uchun murojaat qilishdan chetlatish

- ◯ Ish jarayonida baxtsiz hodisa yuz bersa, bu **haqida xabar bermaslik** yoki **hodisani yashirish**
- ◯ Faqat chet ellik bo'lgani sababli baxtsiz hodisa sug'urtasi yoki boshqa **tovon puli uchun ariza topshirishni taqiqlash**

④(Inson huquqlarining buzilishi) Ish joyidan tashqarida turli inson huquqlari buzilish holatlari

- ◯ Noqonuniy qurilgan turar joylarda (masalan, issiqxona, konteyner va boshqalar) yashashga majburlash, ortiqcha yashash va ovqatlanish xarajatlarini ushlab qolish
- ◯ Shaxsiy guvohnoma, bank hisob raqamini olib qo'yish kabi erkin harakatlanish huquqini cheklash va boshqa asosiy huquqlarning buzilishi

Agar kamsitish yoki boshqa nohaq munosabatlar yuz bersa, siz xabar qilishingiz mumkin

Xabar berish joylari

Butun Koreya bo'ylab mehnat idoralaridagi murojaat xonalari, bandlik markazidagi ko'p tilli maslahatchilar, chet ellik ishchilar uchun maslahat markazi va boshqalar.

※ Chet elliklar maslahat markazi (T.1577-0071) orqali 17 ta tilda maslahat va xabar berish mumkin. (Manzil va telefon raqamlari orqa tomonida ko'rsatilgan)

Xabar va maslahat kuni

2025-yil 8-avgust 20-kunidan (chorshanba) boshlab har chorshanba kuni, Bandlik markazi chet elliklar jamoasi tomonidan "Sayyor murojaat markazi"

"Siz xabar berganingiz uchun hech qanday zarar ko'rmaysiz, himoya qilinasiz."

Agar kamsitish yoki nohaq munosabatlarga duch kelsangiz, ish joyingizni o'zgartirishingiz mumkin

- ◯ Chet ellik ishchilar odatda Koreyaga kelganda tuzilgan mehnat shartnomasidagi ish joyida ishlashlari kerak. Biroq, **qonunda ko'rsatilgan holatlar** yuzaga kelsa, **ish joyini o'zgartirish** mumkin. (Dastlabki 3 yil ichida 3 marta, keyingi 1 yil 10 oyda 2 marta)
- ◯ Ayniqsa, **korxona yopilishi yoki to'xtatilishi**, ish beruvchining **mehnat sharoitlarini buzishi** yoki **nohaq munosabat, kamsitish, huquq buzilishi, yashash joyi standartlariga rioya qilmaslik** va boshqa holatlar tasdiqlansa, **ish beruvchining roziligisiz va cheklovlarsiz** ish joyini o'zgartirish mumkin.

Bandlik va mehnat vazirligi

Chet ellik ishchilar uchun maslahat va murojaat qilish idoralari kontaktlari

Chet elliklar uchun maslahat markazi
(Tel: 1577-0071)

Butun Koreya bo'ylab mehnat idoralaridagi ko'p tilli maslahatchilar kontaktlari (2025-yil avgust holatiga ko'ra)

Idora	Til(lar)	Ko'p tilli maslahat telefon raqami
Jungbu idorasi	O'zbek tili, Rus tili	032-460-7135
	Tay tili	032-460-7136
	Vyetnam tili	032-460-7137
Inchon shimoli idorasi	Kambodja tili	032-540-2097
Buchon idorasi	Bangladesh tili, Ingliz tili	031-999-0907
	Indoneziya tili	031-999-0908
Iyjongbu idorasi	Mo'g'ul tili	031-828-0824
	Nepali, Pokiston (urdu tili)	031-828-0823
	Vyetnam tili	031-828-0902
	Kambodja tili	031-828-0901
	Myanma tili	031-828-0903
Gyonggi idorasi	O'zbek tili	031-290-0879
	Myanma tili	031-289-2208
	Kambodja tili	031-290-0880
	Nepali	031-290-0876
	Tay tili	031-290-0888
Anyang idorasi	Vyetnam tili	031-463-0774
Ansan idorasi	Myanma tili	031-496-1923
Pyongtek idorasi	Indoneziya tili	031-646-1217
	Xitoy tili	031-646-1213
Vonju idorasi	Ingliz tili, Hind tili	033-769-0952
Busan idorasi	Ingliz tili, Indoneziya tili	051-860-2026
Busan sharqiy idorasi	Indoneziya tili	051-559-6606
Busan sharqiy idorasi	O'zbek tili	051-330-9925
Changvon idorasi	Xitoy tili	055-239-3553
	Filippin tili, Ingliz tili	055-239-3552
	O'zbek tili, Rus tili	055-239-3551
	Nepali , Hindu	055-239-3554
Ulsan idorasi	O'zbek tili, Qozog' tili	052-228-1913

Idora	Til(lar)	Ko'p tilli maslahat telefon raqami
Yangsan idorasi	Myanma tili	055-330-6448
	Ingliz tili, Rus tili	055-330-6450
	Kambodja tili	055-330-6451
	Xitoy tili	055-330-6432
	Nepali, Hindu	055-330-6446
Jinju idorasi	Vyetnam tili	055-760-6758
	Vyetnam tili	055-760-6759
Tongyong idorasi	Vyetnam tili	055-730-1922
Degu Idorasi	Xitoy tili	053-667-6047
	Nepali, Pokiston tili	053-667-6048
Degu sharqiy idorasi	Kambodja tili	053-605-6574
	Indoneziya tili	053-605-6576
	Filippin tili, Ingliz tili	053-605-6575
Pohang idorasi	Vyetnam tili	054-288-3500
Gvangju idorasi	Nepali	062-609-8686
	Kambodja tili	062-609-8687
	Vyetnam tili	062-609-8688
	Indoneziya tili, Sharqiy Timor tili	062-609-8689
Iksan idorasi	Nepali, Hindu	063-839-0040
Gunsan idorasi	Vyetnam tili	063-450-0607
Dejon idorasi	Vyetnam tili	042-470-8326
	Kambodja tili	042-470-8328
Chongju idorasi	Filippin tili, Ingliz tili	043-229-0755
Chonan idorasi	Nepali	041-620-9582
	Vyetnam tili	041-620-7465
	Kambodja tili	041-620-9553
	Qirg'iz tili, Rus tili	041-620-9583
Chungji idorasi	Nepali, Ingliz tili	043-850-4052
	Vyetnam tili	043-850-4051
Boryong idorasi	Vyetnam tili	041-930-6267